



UDK: 791.43:930.25

Mansur YUSUPOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: yusupovmansur525@gmail.com

O'zKFFHMA direktori Z.Abdulladjanova taqrizi asosida

STRUCTURAL ANALYSIS OF FILM DOCUMENTS

Annotation

This study analyzes the structural composition of film documents, their principal elements, and distinctive characteristics. As audiovisual carriers of information, film documents constitute an important source reflecting historical, cultural, and social processes. Within the framework of the research, the theoretical and practical significance of structural analysis of film documents in the processes of archiving, description, and incorporation into scholarly circulation is elucidated. The results of the study contribute to improving the systematization, preservation, and scientific utilization of cinematic heritage.

Key words: Audiovisual, cinema, image, film stock, phenakistiscope, film, colors, sound, voice, television, camera angle, plot, shot, apparatus.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ КИНОДОКУМЕНТОВ

Аннотация

В данном исследовании рассматриваются структурный состав кинодокументов, их основные компоненты и специфические характеристики в контексте изучения аудиовизуального наследия. Кинодокументы, являясь аудиовизуальными носителями информации, представляют собой значимый исторический источник, отражающий культурные, социальные и политические процессы своего времени. В работе раскрывается теоретическое и практическое значение структурного анализа в процессах архивной обработки, описания, классификации и научного использования кинодокументов. Особое внимание уделяется роли структурного анализа в обеспечении системного сохранения и эффективного научного использования аудиовизуального наследия. Результаты исследования способствуют совершенствованию методологии систематизации, сохранения и научной интерпретации кинодокументального наследия.

Ключевые слова: Аудиовизуальные документы, кино, изображение, киноплёнка, фенакистископ, кинофильм, цвет, звук, голос, телевидение, ракурс, сюжет, кадр, киноаппарат.

KINO HUJJATLARNING TARKIBIY TAHLILI

Аннотация

Mazkur tadqiqotda kino hujjatlarning tarkibiy tuzilishi, ularning asosiy elementlari hamda xususiyatlari tahlil qilinadi. Kino hujjatlar audiovizual axborot tashuvchisi sifatida tarixiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot doirasida kino hujjatlarni arxivlash, tavsiflash va ilmiy muomalaga kiritish jarayonida ularning tarkibiy tahlilining nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari kino merosini tizimlashtirish, saqlash va undan ilmiy foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Audiovizual, kino, tasvir, plyonka, fenakistiskop, film, ranglar, tovush, ovoz, televideniya, rakurs, syujet, plan, apparat.

Kirish. Kino hujjatlar zamonaviy hujjatli meros tizimida hozirgi kunda alohida o'rin tutuvchi audiovizual manbalar bo'lib, ular tarixiy voqelik, ijtimoiy jarayonlar hamda madaniy hodisalarni vizual shaklda aks ettirish xususiyatiga ega. Ular nafaqat axborotni qayd etish va uzatish vositasi, balki muayyan davrning tarixiy-madaniy muhitini o'zida mujassamlashtiruvchi noyob hujjat turi sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois kino hujjatlarning xususiyatlarini o'rganish hujjatshunoslik, arxivshunoslik va kino tadqiqotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kino hujjatlarning tarkibiy tahlili ularning.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kino hujjatlarning tarkibiy tahlili masalasi audiovizual hujjatshunoslik, arxivshunoslik va kino nazariyasi kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar kino hujjatlar tarixiy manba va arxiv hujjati sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Audiovizual hujjatlarning nazariy asoslarini ishlab chiqishda xorijiy tadqiqotchilar orasida Ray Edmondson alohida o'rin tutadi. Kino tilining tarkibiy elementlarini tadqiq etishda David

Bordwell va Kristin Thompsonning ishlari muhim nazariy manba hisoblanadi.

MDH olimlari orasida audiovizual hujjatlarni arxivshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda G.A. Seksenbaevaning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kino hujjatlarning tarkibiy tuzilishi va ularning arxivshunoslik hamda manbashunoslik jihatlarini kompleks o'rganishga qaratilgan ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, strukturaviy tahlil metodi, shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli davr va janrdagi kino hujjatlarning tarkibiy xususiyatlari o'zaro solishtirildi hamda Tarixiy metod asosida, bundan tashqari, klassifikatsiya va tipologik tahlil metodlari orqali kino hujjatlarning tarkibiy elementlari tizimlashtirildi hamda ularning funksional tasnifi ishlab chiqildi. Mazkur metod arxiv tavsifi va ilmiy identifikatsiya jarayonida muhim metodologik vosita sifatida qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda tarixiy tadqiqotlarda audiovizual manbalardan foydalanish ko'lamini

kengayib borayotganligi kino hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish, ularni tizimlashtirish, tavsiflash va ekspertizadan o'tkazish masalalarining dolzarbligini oshirmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi kino hujjatlar bilan ishlash metodologiyasini takomillashtirish, ularning tarkibiy elementlarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kinoning paydo bo'lishiga bir qator kashfiyotlar ham sabab bo'ldi. XIX asrning oxirlarida aholi turmushiga elektr quvvati kiritib keldi, kimyo fani rivojlandi, u fotografiya (surat olish)ning paydo bo'lishiga, keyinroq esa plyonkani (tasmani) ixtiro qilishda (1887 y.) katta ro'l o'ynaydi. Belgiyalik J.Plato u harakatlanuvchi tasvir illyuziyasini yaratishga xizmat qiluvchi va kino texnologiyasi taraqqiyotida muhim bosqich hisoblangan «fenakistiskop» nomli optik qurilmani ixtiro qildi. U tasvir chizilgan disk, shu diskni aylantiruvchi tasmali uzatma va ko'zgudan iborat edi. Disk aylantirilganda tomoshabin ro'paradagi ko'zguna go'yo harakatlanayotgandek tuyilgan tasvirni ko'rgan. Tasvirlarni suratga olish va keyin ularni ekranga tushirish uchun yorug'lik sezgir material talab qilinar edi. Ko'p izlanishlardan keyin shunday modda topildi. XIX-asrning birinchi yarmida fransuzlar L.J.Dager va J.Nyeps yorug'lik ta'sirida rangini o'zgarturuvchi modda kashf qildilar. Shu modda plyonka yoki shisha sirtiga surkalardi. Bugungi kunda ushbu moddaning tarkibi ilmiy-texnologik taraqqiyot natijasida sezilarli darajada takomillashtirilgan.

Kinofilm (yun. kineo – harakatlantiraman, harakat qilaman + ingl. film – plyonka) – bu kinoplyonkada (yoki boshqa tashuvchida) ketma-ket joylashtirilgan fotografik tasvirlar (kadrlar) majmui bo'lib, yagona syujet bilan bog'langan va kinoproxyeksiya apparatura yordamida ekranda namoyish etishga mo'ljallangan. Kinofilm axborotni ko'rgazmali va yuqori darajada tezkor tarzda taqdim etishni ta'minlaydi. Ko'rgazmalilik tasviriy axborotning dinamik namoyishi bilan belgilanadi. Tezkorlik esa qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ko'rgazmali axborotni taqdim etish imkoniyatida namoyon bo'ladi[1].

XIX-asrning oxirlarida “Lyumyer” (Fransiya) va “Istmen Kodak” firmalari kinolentalar ishlab chiqara boshladi. Fransuz astronomi P.Jansen 1874-yil, fransuz fiziologi Marey 1888-yil, ingliz ixtirochilari F.Grin va J.Evans 1889-yil, kinoga olish apparatini yaratdi[2]. Oradan hech qancha vaqt o'tmay 1892-yili Lui va Ogyust Lyumerlar rasmlar harakatini ta'minlovchi apparat ixtiro qilganligini ma'lum qilishadi va 1895-yilning 13-fevralida mana shu ixtiro uchun patent olishga muvaffaq bo'lishadi[3]. Fransuz ixtirochisi Lyumyer 1894-yil kinoga olish va namoyish qilish apparatini yaratdilar. Lui Lyumyer 1895-yil 22 mart kuni Parijda “Ishchilarning fabrikadan chiqishi” deb atalgan filmni patent tasdiqlovchi komissiya a'zolariga ko'rsatadi va 28 dekabrda ommaviy kinonamoyishlar uyushtiradi. Ana shu kun kinematografiya tug'ilgan kun va Fransiya – kino vatani hisoblanadi, chunki fransiyalik aka-uka Lui va Ogyust Lyumyerlar rasmni harakatda ko'rsatuvchi apparat kashf etib, 1895-yilning 28 dekabrda Parijdagi “Grand kafe” binosining yer to'la qismida o'z kashfiyotlarini namoyish etdilar. Ana shu kashfiyot keyinchalik “sinematograf” yoki “kinematografiya” deb nomoldi. Aka - uka Lyumyerlarning oq choyshabga nur taratish orqali namoyish qilgan lavhalari “Ishchilarning Lyumyer fabrikasidan chiqishi”, “Poyezdning La Sioto stansiyasiga kelishi”, “Shalabbo bo'lgan mirob”, “Bolaning ovqatlanishi” singari syujetlardan iborat edi. Bu syujetlar asosan Lyumyerlar xonadonida ro'y bergan voqealardan tashkil topgan edi[4]. Namoyishdan so'ng boshqa mamlakatlardan takliflarni qabul qila boshladi, bu esa filmlar suratga olish jarayonining katta tijoratlashuviga olib keldi. 1896 yilning birinchi yarmida London, Rim, Jeneva, Madrid, Sankt-Peterburg, Nyu-York,

Kyoln, Melburn va Yaponiyada kino namoyishlari bo'lib o'tdi[5].

Dastlabki filmlar texnik jihatdan sodda bo'lib, qo'lda proyeksiya (tasvir, video yoki yorug'lik ta'siri yordamida biror obrazni maxsus qurilma orqali ekran, devor yoki boshqa sirtga tushirish jarayonidir) namoyish etiladigan tasvirlarni Film proyeksiyasi yordamida qilinadigan qisqa lavhalardan iborat edi, biroq vaqt o'tishi bilan kino murakkab badiiy va texnologik tizimga aylanish orqali jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi.

Kinoning ilk rivojlanish bosqichi ovozsiz kino davri bilan tavsiflanib, unda mazmun asosan vizual ifoda va jonli musiqiy hamrohlik orqali yetkazilgan. 1920-yillar oxirida ovoz texnologiyasining joriy etilishi kino taraqqiyotida tub burilish yasab, film yaratilish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi hamda ekran asarlarining badiiy ta'sirchanligi va ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi[6].

XIX asr oxirida o'z rivojlanishi uchun dastlabki texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan kinematograf deyarli butun XX asr davomida san'at turi sifatida shakllanib va takomillashib bordi. XX asr jahon madaniyati va ommaviy kommunikatsiya tarixida kino san'ati mislsiz darajada taraqqiy etganligi bois, ko'pincha “kino asri” sifatida e'tirof etiladi. Kino o'zining vizual tabiatiga ko'ra nafaqat o'z davrining madaniy, ijtimoiy va badiiy jarayonlarini yaqqol aks ettirdi, balki XX asrning ko'plab dramatik, fojiali va ulug'vor voqealariga guvoh bo'lgan inson ongidagi o'zgarishlarni ham namoyon etdi. Kino hujjatlar XX asr madaniyatining eng yorqin hodisalaridan biriga aylanib, tasvir va tovush o'zaro sintetik birlikda boyish orqali yangi o'lcham hamda semantik mazmun kasb etgan san'at turiga aylandi[7].

Kino rivojlanishining dastlabki davri odatda “ovozsiz” deb ataladi, lekin aslida kino hech qachon ovozsiz emas edi - bu faqat eshitilmas edi. Kino maydoni (kino monumenti maydoni) ovozsiz bo'lmagan. Ma'lumki, Lumierlarning birinchi ommaviy kino namoyishlari pianino musiqasi bilan birga bo'lgan. (Xuddi shu vaqtga kelib, sinxron taqlid shaklida ovoz formatlashning birinchi urinishlari, masalan, poyezd tovushlari, tortishish, portlashlar va boshqalar “sahna ortida”.) Kino zalida uyg'un musiqiy tovushning paydo bo'lishining sababi nafaqat proyeksiyalovchi (tasvirni yoki shaklni bir tekislikka tushirish, aks ettirish) kameraning bezovta qiluvchi shovqini edi, tomoshabinda tirik, hayotiy makonda bo'lish hissini yaratish muhimroq edi. Ekrandagi shovqinsiz B.Axmedov “Kino mahorat pog'onalari” soylar ba'zida kinematografga tashrif buyuruvchilarda haqiqiy qo'rquvni keltirib chiqardi. Yozuvchi Maksim Gorkiy o'zining ilk film namoyishlaridan biriga tashrifi taassurotni juda hayajon bilan ifodalagan: “Asablaringiz zo'riqishi, tasavvuringiz sizni qandaydir g'ayritabiiy bir xildagi hayotga, rangsiz va tovushsiz, lekin harakatga to'la hayotga olib boradi. Soyalarining bu kulrang harakatini jimgina ko'rish qo'rqinchli”[8].

Jahonda sodir bo'lgan ekran mo'jizalaridan biri bu kino san'ati u ovozsiz oq-qora ranglarni o'zida mujassam etib bugungi kunga qadar bir qancha rivojlanish bosqichlari bilan ancha mashaqqatli yo'llarni bosib kelmoqda. Har bir sohada, kasbning imkoniyatlarini ifoda qilib beruvchi til uslublari, namoyish vositalari mavjud[9]. Hozirgi kunda kino nafaqat ko'ngilochar vosita, balki tarbiyaviy, ma'rifiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan sohasi sifatida e'tirof etiladi.

Lumiere aka-ukalarning (Louis ve Auguste Lumiere)1895 yilida suratning (fotografning) harakatli xolda ko'rishning imkoniyatining bor bo'lganligini o'z ijodlarida ko'rsatib aniqlik kiritganlaridan keyin kino san'ati rivojlana boshlagan. Boshqacha qilib aytganda XIX asrning oxirlarida “yettinchi san'at” o'laroq kino san'ati hayot topdi. Dastlabki

bosqichlarda kino bir o'yin-kulgi vositasi sifatida kinematografik rasmlar holatida faoliyat ko'rsatgan[10].

Dastlabki kino hujjatlarda harakatdagi tasvir (obraz) muhim umumjahon til hisoblanadi. Sababi ular madaniyatimizning bir qismi jihatida ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Harakatdagi tasvirlar "o'qilishi" kerak: kamera rakursi, bunda turlicha masalan: Yuqori rakurs – kamera yuqoridan qaraydi; qahramon zaifroq ko'rinishi mumkin, Pastki rakurs – kamera pastdan qaraydi; qahramon kuchli, salobatli ko'rinadi, Yon rakurs – obyekt yon tomondan tasvirlanadi, Frontal rakurs – to'g'ridan-to'g'ri oldindan tasvirga olish. plan, tasvirning kadr ket-maketligidagi o'rni, yorug'lik, nur – bularning bari filmni talqin etishda o'ta muhim jihatlarda bir hisoblanadi[11].

Kino XX asrning eng kuchli ta'sir vositalaridan biriga aylandi. Vizual obrazlar, ovoz, musiqa va syujet (asar, film, hikoya yoki boshqa badiiy matndagi voqealarning rivojlanish tartibi va o'zaro bog'liqligi) qurilishining sintezi orqali kino tomoshabiniga chuqur emotsional ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, bunda tarixiy-biografik, harbiy-vatanparvarlik va milliy mafkurani aks ettiruvchi filmlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi[12]. Kino voqea va qahramonlar orqali tomoshabinning hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tarixiy xotira va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy, biografik va qahramonlik ruhidagi filmlar yosh avlodga ajdodlar merosiga hurmat, yurt ravnaqi uchun mas'uliyat hissi hamda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini mustahkamlaydi. Shu bois kino nafaqat madaniy hordiq vositasi, balki ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ta'sirchan pedagogik instrument sifatida ham e'tirof etiladi. Shu o'rinda audiovizual manbalar mazmuni turlichadir. Ular bizga O'zbekiston xalqining kelib chiqishi tarixi, madaniyati, turmush tarzi, shahar va qishloqlarning ko'rinishlari, bayram-tantanalarning nishonlanishi, xalq ta'lim tizimini rivojlanishi, ajdodlarimiz haqida ma'lumot beradi.

Ushbu manbalarning o'ziga xosligi shundaki, ular ma'lum voqeani ayni vaqtda tasvirli ko'rinishi va ishtirokchilarning his tuyg'ularini boricha ifodalab, ochib beradi.

Vaqtlar o'qishi bilan ommaviy axborot vositalari insoniyat tarixida muhim ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Media jamiyatda axborot tarqatish, madaniy va siyosiy jarayonlarni shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Dastlabki matbuot vositalari gazeta va jurnallar odamlar orasida axborot almashish va fikrlarni shakllantirishning asosiy vositasi bo'lgan. Keyingi davrlarda texnologik taraqqiyot natijasida radio va televideniylarining paydo bo'lib, ommaviy kommunikatsiyaning ta'sir doirasini yanada kengaytirdi. Ularning vujudga kelishi axborotni tezkor yetkazish imkoniyatini yaratib, media vositalarining jamiyat hayotidagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, televideniye nafaqat axborot tarqatish, balki ta'lim, tarbiya va ommaviy madaniyatni shakllantirishda ham muhim vositaga aylandi. XXI asrga kelib internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi media makonini tubdan o'zgartirib, jahonshumul axborot almashinuvining yangi bosqichini boshlab berdi. Bugungi kunda media insonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va madaniy qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Kino hujjatlar audiovizual hujjatlar tizimida o'ziga xos o'rin egallab, tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni vizual shaklda aks ettiruvchi muhim axborot manbasi hisoblanadi. Ularning tarkibiy tahlili kino hujjatlarining mazmuniy, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kino hujjatlarining tarkibiy tuzilishini chuqur tahlil qilish ularning axborot salohiyatini to'liq ochib berish, tarixiy ishonchligini baholash va hujjat sifatidagi ilmiy qiymatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarkibiy tahlil kino hujjatlarini arxivlash, tizimlashtirish, tavsiflash hamda ilmiy muomalaga kiritish jarayonlarining metodologik asosini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Архивное дело в зарубежных странах (XX начало XXI вв.): учебное пособие / Г.А. Сексенбаева. Алматы: Қазақ университети, 2019. 34с.
2. Isokova M K Kino va televideniye tarixi. /O'quv qo'llanma – Toshkent: Naro'z 2020. –b.6
3. <https://www.google.com/search>
4. Isokova M. K. Kino va televideniye tarixi. /o'quv qo'llanma – Toshkent: Naro'z 2020. –b.7
5. <https://zarnews.uz/uz/post/tarixni-ozgartirgan-nom-va-kashfiyotlar>
6. <https://srcyrl.dm-gfilter.com/news/the-history-of-cinema-73111513.html>
7. Маньковская Н. Б. Типологизация аудиовизуальных решений в кинематографе.
8. Q. Jumanov Ovozsiz kinoda audio-vizual munosabatlar shakllanishi hodisasiga nazar // Oriental Art and Culture. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ovozsiz-kinoda-audio-vizual-munosabatlar-shakllanishi-hodisasiga-nazar>.
9. Jumanov Q. Dastlabki kinolardagi audio-vizual makon shakllanishi /O'zbekstan respublikasi joqari bilimlendiriw, ilim hám innovაციyalar ministrligi. – C. 58.
10. Müminoğlu K. Felsefe ve Sinema //İçtimaiyat. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 96-106.
11. Sayram Sobirova, Kino san'atida obraz tushunchasi // Oriental Art and Culture. 2020. №III. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kino-san-atida-obraz-tushunchasi> (дата обращения: 27.03.2026).
12. Akramjonovich M. R. Vatanparvarlik tarbiyasida kino, teatr va adabiyotning o'rni // ijodkor o'qituvchi. – 2025. – T. 5. – №. 53. – C. 25-28.